

## SOLIQ FUNKSIYALARI VA ULARDAN IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHDA FOYDALANISH MASALALARI

**Xaydarov Bobir Qudratqulovich**

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti*

**Annotatsiya.** Har qanday iqtisodiy kategoriyaning funksiyasi uning mohiyati, ichki tarkibi va ahamiyatini ochib beradi. Soliq funksiyalari daromadlarni bir qismini davlat byudjetiga undirish va taqsimlash instrumenti sifatida jamiyatda o'ziga xos rol ni amalga oshiradi.

**Tayanch so'zlar.** Egri soliqlar, soliq imtiyozlari, soliq turlari, soliq agenti, soliq munosabatlari, maxalliy byudjet, davlat byudjeti.

**Tahlil va natijalar.** Soliqlar uchun to'lovlarni byudjetga ajratishning majburiylik xarakteri o'ziga xos belgilaridan biridir, lekin aynan ularning barqarorligi yoki doimiyliigi davlat daromadining asosini yaratadi, ular yordamida ijtimoiy talablarini qondirish imkonini beradi. Soliqning mazkur imkoniyati uning davlatchilik paydo bo'lgandan buyon amal qilib kelishining obyektiv zaruriyatini va soliq mohiyatining xarakterlovchi muhim xususiyati sifatida fiskal funksiyasining mavjudligi bilan asoslanadi. Totalitar va iqtisodiy jihatdan rivoj topmagan davlatlarda soliqning fiskal funksiyasi qolgan funksiyalaridan ustun bo'ladi, lekin shu bilan soliq yukining haddan ziyod yuqorilig va soliqqa tortishning davlat manfaatlariga to'liq tobeligi soliq to'lovchilarning nafaqat o'zlari zimasi qo'yilgan soliq majburiyatlarini bajarmasligiga olib keladi, balki soliqdan qochishning qonuniy va noqonuniy yo'llarini qidiradi. Bu haqda klassik iqtisodchi olim D.Rikardo ta'kidlaganidek, "Bu holatda har bir soliq to'lovchi o'zidagi soliq yukini to'lashni boshqaga o'tkazishdan manfaatdordir. Bunday yukdan qutilish imkonini beradigan boshqa mamlakatga o'z kapitali bilan ko'chib ketish taskini oxir oqibatda kishini yutib chiqadi, shu taskin bilan u o'z vatanini va eski aloqalarni tark etadi"

Soliq nazariyasining tarixiy-tadrijiy rivojlanish jihatidan qaralganda iqtisodiyot nazariyasini klassik namoyondalari (U.Petti, A.Smit, D.Rikardo) iqtisodiyotni tartibga solishda soliqlardan foydalanish g'oyasini faol iqtisodiy siyosat quroli sifatida foydalanishga umuman salbiy yondashganlar, ularning ta'limotlarida iqtisodiyotga aralashuv shart emas, uni tabiiy-iqtisodiy qonunlar ("ko'rinmas qo'llar") tartibga soladi. Xuddi shu g'oyani P.Lerua-Bolye, A.Sturm va boshqalar ham ilgari surganlar. Biroq, A.Vagner ijtimoiy-siyosiy yondashuvni ilgari surdi, bunga ko'ra soliq siyosati nafaqat fiskal, balki tartibga soluvchi ijtimoiy-siyosiy maqsadlarni ham ko'zda tutishi kerak. "Soliqlarga yaqin kelajakda, sof moliyaviy maqsad bilan bir qatorda, - deydi A.Vagner, - yana bir boshqa farqli maqsad – xalq daromadlari va mulkini taqsimlashda

solliqlar yordamida tartibga soluvchi aralashuvni amalga oshirish va shuning asosida, erkin ayirboshlash sharoitida yuzaga keladigan o'zgarishlarni ta'minlash maqsadi qo'yilishi mumkin. Men bu nuqtai-nazarni nafaqat turli ziddiyatlarga qarshi turib qo'llayman, balki endi mazkur maqsadni alohida daromad va mol-mulkni iste'mol qilinishida ham tartibga soluvchi mazmundagi aralashuv yo'nalishida kengaytiraman. Ko'rsatilgan ushbu maqsadning bunday belgilanishidan kengaygan, yoki, aytish joiz bo'lsa, soliqning sof moliyaviy mazmuni bilan birgalikda, ikkinchi ijtimoiy-siyosiy mohiyati kelib chiqadi".

Soliqlarning iqtisodiyotni rag'batlantirishi fiskal vazifalarda ham mujassam, chunki soliq usuli bilan shakllangan byudjet resurslari noishlab chiqarish, ijtimoiy sohasini rivojlantirishga, fan talabini qondirishga, sog'liqni saqlash va madaniyatga mo'ljallangan. Byudjet resurslaridan ongli maqsadli foydalanish jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Lekin bunday rag'batlantirish bevosita ishlab chiqarish jarayonlarida amalga oshirilmaydi va faqat uzoq muddatdan keyin samarasi namoyon bo'lishi mumkin. Iqtisodiy o'sishni ta'minlash va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun moliyaviy resurslar ishlab chiqarishda shakllanadi, aynan shuning uchun ham ishlab chiqarish soliqlar vositasida rag'batlantirishining bosh obyekti bo'lishi kerak.

Ta'kidlash joizki, nazariy jihatdan soliq vositasida rag'batlantirish keng qamrovga ega bo'lishi mumkin. Lekin amalda xo'jalik yurituvchi subyektlar har doim ham soliqlar vositasida rag'batlantirilgan yo'nalishga burilib ketavermaydi. Bu eng avvalo soliq motivatsiyasi muammolari bilan bog'liq. Bizningcha, sabablar va rag'batlarni uzviy bog'liqlikda qarash kerak, chunki korxonalar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar ichki va tashqi omillarning yaxlit ta'siri ostida shakllanadi. Sabab va rag'bat o'rtasida ma'lum bir bo'g'inlar mavjud – davlat manfaatlar, mulkdor manfaatlar, yollanma ishchi manfaatlar, ijtimoiy rivojlanish, ularni amalga oshirish imkoniyatlari va usullari hamda pirovard natija. Soliqlar vositasida rag'batlantirish iqtisodiy manfaatlar bilan optimal taqqoslanishi kerak. Shunday qilib, soliq vositasida rag'batlantirishning konseptual asosida, taraqqiyotning iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqib, manfaatlar uyg'unligi va ularni optimallashtirish g'oyasi yotishi maqsadga muvofiq.

Soliq funksiyalarini belgilashga oid muammoli yondashuvlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin. Ayrim tadqiqotchilarning soliqlarning faqatgina fiskal funksiyasi mavjud degan fikrlarni ilgari suradi, shu jumladan I.V.Gorskiy. Uning fikricha soliqlarning ko'p asrlik evolyutsiyasi davomida faqatgina fiskal funksiyagina o'zgarmay kelmoqda. Bu o'zicha yetarli funksiya, iqtisodiyotning rivojida tabiiy ravishda o'z aksini topadi va "tartibga soluvchi" muvozanatga muhtoj emas deb hisoblaydi.

Albatta, bunday soliq funksiyalariga nisbatan turfaxillik tasodifiy emas. U soliq undirishga oid davlat g'aznasiga olib qo'yish va "yaxshilik" (tartibga solish,

ragʻbatlantirish va boshqalar) oʻlchovlari boʻyicha tarixiy jihatdan shakllangan turli qarashlar bilan belgilanadi. Bundan tashqari koʻpincha, tartibga soluvchi funksiyani fiskalligi yuqori deb qaraydiganlar bu funksiyani mohiyatini ochib berishda uning turli segmentlarini aniqlaydilar. Soliq munosabatlarida taqsimlash, ragʻbatlantirish va nazorat qilish jarayonlarini aks ettiruvchi ushbu segmentlar aslida shunga oʻxshash funksiyalarni koʻpaytiradi, biroq pastki iyerarxik darajada, ularni yuqoridagi shu ikkita asosiy funksiyaga boʻysinishni taʼkidlaydi. Koʻrinib turibdiki, ayrim funksiyalarning boshqalarga bunday boʻysinishi doimiy emas, bu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining turli bosqichlarida muqarrar ravishda farqlanadigan soliq siyosatining ustuvor vazifalariga muvofiq oʻzgarishi kerak. Soliqlarning funksiyalari bir-biriga bogʻliq va ularning har biri yaxlit boʻlakning bir qismidir, shu sababli soliqning biror bir funksiyasi boshqasidan mustaqil holda vazifasini bajara olmaydi. Shu bilan birga, bu yaxlitlik ularning oʻzaro va ichki qarama-qarshiliklarini inkor etmaydi, bir funksiyani ustunlik bilan amalga oshirish boshqalariga zarar yetkazishi istisno etilmaydi, bu esa yana bir bor har bir funksiyaning muayyan mustaqilligini va ularning barcha xilma-xilligini oʻrganish istiqbolini aks ettiradi.

Soliqlarni quyidagi rasmda keltirilgan toʻrtta funksiyaga ajratish maqsadga muvofiqdir.

1. Fiskal funksiya soliqlarning eng asosiy funksiyasi boʻlib, u oʻzida soliqqa tortishning asosiy maqsadi, soliq toʻlovchilarning daromadlarining bir qismini davlat byudjetiga majburiy undirishni aks ettiradi. Soliqqa tortishning har qanday koʻrinishida barcha soliqlar fiskal funksiyani bajaradi. Soliqlarning fiskallik funksiyasi soliqlarning paydo boʻlishining dastlabki davrlarida yagona boʻlgan, davrlar oʻtishi bilan u oʻz kuchini yoʻqotmagan, balki iqtisodiy munosabatlar rivojlanishi natijasida boshqa funksiyalarni yaratilishiga asos boʻlgan. Shundan kelib chiqib, soliqlarning boshqa funksiyalarini fiskal funksiyaning hosilasi deb atash mumkin.

2. Soliqlarning taqsimlash funksiyasi soliqning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini soliq toʻlovchilarda shakllangan daromadlarni (soliq bazasini) dastlabki taqsimlash munosabatlarining vositasi sifatida ifodalaydi va bozor qonunlari tartibga solishga qodir boʻlmagan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni davlat tomonidan hal etish imkonini beradi. Ushbu funksiya yordamida jamiyatning boy qatlamiga soliq yukini oshirish hisobiga aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini mablagʻ bilan taʼminlashning manbasi yaratiladi. Mazkur holatda moliyani qayta taqsimlash va soliqning taqsimlash funksiyalarini aralishtirib yuborish kerak emas, soliqning taqsimlash funksiyasi daromadlar shakllangan davrdagi dastlabki taqsimlashni koʻzda tutsa, moliyaning qayta taqsimlash funksiyasi soliqlar orqali taqsimlanib, yigʻilgan byudjet daromadlarini qayta taqsimlashni nazarda tutadi.

3. Soliqlarning keyingi funksiyasi bu nazorat qilish funksiyasidir. Ushbu funksiya orqali byudjetga undirilayotgan soliq toʻlovlarini oʻz vaqtida va toʻliq tushishi nazorat

qilinadi, shu bilan birga soliq qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlaydi. Soliqlarning ushbu funksiyasi nafaqat tekshirish va jazolashni ko'zda tutadi, balki qonun buzilishlarini oldini olishni ham nazarda tutadi.

4. Soliqlarning keyingi funksiyasi tartibga solish funksiyasidir. Tartibga solish funksiyasi iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish (ishlab chiqarishni rag'batlantirish, talab va taklifni mutanosibligini ta'minlash, aholi daromadlari va omonatlarini, investitsiya hajmini kafolatlash)ga qaratilgan soliq tizimidagi chora-tadbirlar yig'indisidan iborat bo'ladi. Soliqlarni tartibga solish funksiyasidan rag'batlantirishda foydalanish maqsadli ravishda hukumat dasturlari asosida iqtisodiyotni taraqqiy ettirishga ijobiy ta'sir etish maqsadida qo'llaniladi.

*Cheklovchi* - davlat tomonidan soliq stavkalarini ko'tarish bilan jamiyat uchun foydasiz deb topilgan yoki aholi salomatligi uchun zararli bo'lgan mahsulotlar va ba'zi faoliyat turlarini cheklashni nazarda tutadi.

*Qayta (takror) ishlab chiqarish* – foydalanilgan mablag'larni o'rnini qoplash (mablag'larni ishlab chiqarishni kengaytirishda va yangilashda foydalanilgan holatlar uchun imtiyoz berish).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi umumiy xulosalarni shakllantirish mumkin:

- iqtisodiyotni soliqlar vositasida tartibga solishda soliq stavkalarining tabaqalanishi, soliqqa tortish subyektlari va obyektlari, soliqqa tortish mexanizmida o'zgartirishlar keng qo'llaniladi. Bevosita va bilvosita soliqlar o'rtasidagi soliq imtiyozlari va oqilona nisbatlari iqtisodiy faollikni soliqlar orqali tartibga solishda qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi va kengaytiradi. Iqtisodiy faollikni soliqlar vositasida tartibga solishda mamlakatdagi muayyan iqtisodiy holatlar va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha har bir davrda davlat oldida turgan muayyan maqsadlarga bog'liq;

- soliq yuki darajasining yuqoriligi korxonalarda bir necha salbiy oqibatlari yoki asoratlari bilan xarakterlanadi. Bunday oqibatlarga soliq boqimandalarining oshishi, xufyona iqtisod qamrovlarining kengayishi, korxonalarning davlat oldidagi va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar oldidagi majburiyatlarini bajara olmasligi, ya'ni kreditorlik qarzdorliklarining oshishi kabilarni keltirish mumkin. Demak ushbu sharoitda soliq yukining yuqoriligi natijasida byudjetga tushumlarning kamayishiga uchragan davlat uchun eng maqbul strategiya bu soliqlarni kamaytirish, korxonalarning iqtisodiy faolligini o'stirishga imkon beruvchi soliqqa tortish tamoyillariga amal qilish bo'ladi;

- tadbirkor daromad olish istiqbollarini ko'rmasa yoki bozorda korxonalar samarali faoliyat yuritayotib, yuqori va progressiv soliqlar ko'rinishidagi kuchli to'siqqa to'qnash kelsa, uning iqtisodiy faolligi pasayadi, tadbirkorni ishlab chiqarishga jalb qilish borasidagi barcha sa'y-harakatlar behuda ketadi, Shuning uchun

tadbirkorlikni rivojlantirishni dastlab bosqichlarida kengqamrovli va shu bilan birga aniq maqsadli soliq imtiyozlarini joriy etilishi ijobiy samara berishi mumkin;

- rivojlangan mamlakatlarning soliq tushumlarida bevosita soliqlar salmogʻi yuqori boʻlsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda byudjet daromadlarini bilvosita soliqlar yordamida toʻldirish qulay va yengil. Qolaversa, rivojlanish jarayonida boʻlgan mamlakatlarda bilvosita soliqlar – soliq tushumlari tushishining barqaror garovi boʻlib, ularni byudjetga oson va arzon undirilish xarakteriga ega;

- samarali soliq mexanizmining yaratilishi takror ishlab chiqarish tamoyiliga tayangan boʻlishi, takror ishlab chiqarish jarayonini ragʻblantirilishini, uni mutanosibligini va bozor iqtisodiyotiga mos kelishini taʼminlashi shart. Bu turli sohalar va faoliyat turlari oʻrtasida kapitalni qayta taqsimlanishiga davlatning soliqlar bilan taʼsir koʻrsatishini nazarda tutishi va, avvalo, bozor talabi ehtiyojlariga mos keluvchi optimal iqtisodiy tuzilmani tashkil etilishi bilan ifodalanishi lozim.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. Сочинения, том I. Государственное издательство политической литературы. М.: - 2018.- С. 205.
2. Титов А.С. Понятие, сущность и основные направления развития налоговой политики //Финансовое право. – №5, 2022 – С.21.
3. Налоговая политика России: проблемы и перспективы. Под ред.: [Горский И.В.](#) Издательство: Финансы и статистика: Москва – 2023 г., 288 стр.